| MAMLAKATIMIZDA EKSPORT JARAYONLARINI BARQARORLASHTIRISH OMILLARI                                                                                          |            |
| Abdvaliyev Sh.X. ....                                                                                                                                     | 524        |
| SANOAT KORXONALARIDA HR MENEJMENT TIZIMINI JORIY ETISH VA XODIMLARNI BOSHQARUV HOLATI TAHLILI                                                             |            |
| Toshtemirov S.G'. ....                                                                                                                                    | 534        |
| INSON RESURSLARINI BOSHQARISHDA MOTIVATSIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH                                                                                    |            |
| Abdufattoxova H. ....                                                                                                                                     | 539        |
| AVTOMATLASHTIRILGAN BUYUMLARNI SARALOVCHI ROBOTLAR                                                                                                        |            |
| G'ulomov X.A. ....                                                                                                                                        | 545        |



|                                                                                                                                                         |            |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| APPLICATION OF ESG PRINCIPLES AS A WAY TO INCREASE COMPETITIVENESS IN THE MANAGEMENT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES                                          |            |
| Kurbanov U.A., Kurbanova Sh.Y., Alimova D.T. ....                                                                                                       | 548        |
| ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭКОНОМИКИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА РЫНОК ТРУДА.                                                                                                     |            |
| Фарходова Ш.Ш. ....                                                                                                                                     | 554        |
| СОВРЕМЕННЫЕ НОВЕЙШИЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКОНОМИКЕ И БИЗНЕСЕ: РОЛЬ В СОЦИАЛЬНО- ЭКОНОМИЧЕСКОМ РАЗВИТИИ РК                                                      |            |
| Агабекова Ш.Н., Бокушева С., Байкенжеева Д.Б. ....                                                                                                      | 557        |
| ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКИ В РЕГИОНАХ КАЗАХСТАНА: ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ                                            |            |
| Жартай Ж.М., Саттыбаева Д.М., Рахимова А.Н., Никкель Л.Д. ....                                                                                          | 565        |
| O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR                                                                           |            |
| Vahangurov O.O. ....                                                                                                                                    | 571        |
| O‘ZBEKISTONNING YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH YO‘LLARI VA USTUVORLIKLARI                                                                                  |            |
| Luqmanov B.M. ....                                                                                                                                      | 577        |
| KAPITAL TANQISLIGI SHAROITIDA MOLIVAVIY RESURLARNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH                                                                              |            |
| Arziyev S. ....                                                                                                                                         | 585        |
| <b>V SHO‘BA. ESG STANDARTLARIGA MOS KELADIGAN INVESTITSIYA LOYIHALARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH, DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK VA XALQARO MOLIVA INSTITUTLARI</b> | <b>590</b> |
| SANOAT KLASTERLARI – SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISHNING STRATEGİK YO‘NALISHI SIFATIDA                                                                     |            |
| Sobirov A.A. ....                                                                                                                                       | 590        |
| АНАЛИЗ ВА СИНТЕЗ МЕТОДЛАРИНИНГ ЭВОЛЮЦИЯСИ                                                                                                               |            |
| Дусмуратов Р.Д., Носирова Н.Ж. ....                                                                                                                     | 597        |
| ESG-ФАКТОРЫ В ПРИНЯТИИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕШЕНИЙ: ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ                                                                                       |            |
| Ким Л.Н., Елтаев Н.К. ....                                                                                                                              | 606        |
| КЛЮЧЕВЫЕ АСПЕКТЫ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОДДЕРЖКИ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭКОНОМИКИ НА ПРИМЕРЕ НИЖЕГОРОДСКОЙ ОБЛАСТИ                                                           |            |
| Ремизова И.В. ....                                                                                                                                      | 614        |
| TIJORAT BANKLARIDA DAVLAT MAQSADLI DASTURLARINI MOLIVALASHNING ILG‘OR XORIY TAJRIBALARI                                                                 |            |
| Shodiyev Sh.S. ....                                                                                                                                     | 620        |
| ВЛИЯНИЕ ЗЕЛЁНЫХ ИНВЕСТИЦИЙ НА ИНВЕСТИЦИОННУЮ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВ                                                                      |            |
| Усманова Ю. ....                                                                                                                                        | 623        |
| YASHIL ENERGETIKA SOHASIDA INVESTITSIYALARNING ROLI                                                                                                     |            |
| Primov S.F. ....                                                                                                                                        | 632        |
| ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В РАМКАХ ЗЕЛЕННЫХ РАБОЧИХ МЕСТ                                                              |            |
| Хувайдуллаева И.Х. ....                                                                                                                                 | 638        |
| RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INVESTITSIYALARNI JALB QILISH                                                                                            |            |
| Primov S.F. ....                                                                                                                                        | 642        |
| ТИЖОРАТ БАНКЛАРИНИНГ ФАОЛИЯТИДА УЧРАЙДИГАН РИСКЛАР ВА УЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ                                                                      |            |
| Хусанбоев А.Ғ. ....                                                                                                                                     | 647        |
| ВЛИЯНИЕ ПРИНЦИПОВ ESG НА РЕЗУЛЬТАТЫ ПЕРВИЧНОГО ПУБЛИЧНОГО РАЗМЕЩЕНИЯ АКЦИЙ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ                                                          |            |
| Сайдуллаев Ш. ....                                                                                                                                      | 653        |
| РАНВАР КАДРЛАРИНИНГ БОШҚАРУВ КОМПЕТЕНСИЯЛАРИНИ РИВОJЛАНТИРИШДА RAQAMLI TECHNOLOGIYALARNING O‘RNI                                                        |            |
| Olimov S.A. ....                                                                                                                                        | 660        |
| MILLIY IQTISODIYOTDA KICHİK TADBIRKORLIKNING O‘RNI VA AHAMIYATI                                                                                         |            |
| Kurbanova Sh.Y., Yusupov A.A. ....                                                                                                                      | 667        |
| ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ БИЗНЕС-МОДЕЛЕЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ                                                                  |            |

|                                                                                                                                                          |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Koptaeva G.II., Bekebaeva M.O. ....                                                                                                                      | 672 |
| HUDUDLAR TASHQI IQTISODIY STRATEGIYALARINI SHAKLLANTIRISHNING XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI                                                                |     |
| Toshboyev M.M. ....                                                                                                                                      | 680 |
| QISHLOQ XO'JALIGIDA KLASSTERLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT SUBSIDİYALARINING AHAMIYATI                                            |     |
| Yuldasheva D.K. ....                                                                                                                                     | 689 |
| O'ZBEKISTONDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOIIY AHAMIYATI                                                               |     |
| Mamatov M.N. ....                                                                                                                                        | 699 |
| RAQAMLI-ELEKTRON PULLAR VA KRIPTOVALYUTALAR FARQLARI                                                                                                     |     |
| Matchanov T.M., Matchanova M.I. ....                                                                                                                     | 703 |
| AXBOROT TIZIMLARI XUSUSIYATLARI                                                                                                                          |     |
| Norinov M.U., Abdulxamid A.I., Oripov O.I., Madaminov F.R. ....                                                                                          | 709 |
| CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH SANOATI VA ATROF-MUHITGA SALBIY TA'SIRINI KAMAYTIRISH YO'LLARI                                                               |     |
| Tursunqulov Sh.R. ....                                                                                                                                   | 715 |
| O'ZBEKISTON IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ISHLAB CHIQARISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI OQIBATLARIGA MOSLASHISH MEXANIZMLARI |     |
| Abduraxmanova Z.T., Rustamova M.M. ....                                                                                                                  | 722 |
| RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI SANOATDA EKOLOGIK SAMARADORLIKNI OSHIRISH                                                                                  |     |
| Hasanov H.X. ....                                                                                                                                        | 727 |
| SHADOW ECONOMY EXPOSED: THE HIDDEN FORCES SHAPING ECONOMY.                                                                                               |     |
| Arziev Sh.R. ....                                                                                                                                        | 735 |
| TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARI                                                                      |     |
| Axmedova D.B. ....                                                                                                                                       | 741 |

5. McKinsey & Company. Artificial Intelligence in Industry: Driving Efficiency and Sustainability. New York: McKinsey Global Institute, 2023, p. 33–35.
6. Karimov, B. (2023). O‘zbekiston sanoatida barqaror boshqaruv va ESG tamoyillarining ahamiyati. Toshkent: Iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish jurnali, № 2, p. 49–51.
7. OECD & UNEP. Policy Pathways for Green Industrial Transition. Paris–Nairobi, 2021, p. 14–20.
8. World Economic Forum. Harnessing AI for the Energy Transition. Geneva, 2022, p. 36–40.
8. Floridi, L., & Cowls, J. The Ethics of Artificial Intelligence: Principles, Challenges, and Opportunities. Cham: Springer, 2020, 250 b.
9. Kaplan, J., & Haenlein, M. Siri, Siri, in My Hand: Who’s the Fairest in the Land? Business Horizons, 62(1), 2019, p. 15–25.
10. UN Industrial Development Organization (UNIDO). Green Industry Platform Annual Report 2023. Vienna, 2023, p. 45–48.

## **HUDUDLARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY– INSTITUTIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BU YO‘NALISHDAGI DAVLAT SIYOSATI**

**Qo‘chqorova Muxlisaxon Ulug‘bek qizi**  
Toshkent menejment va iqtisodiyot instituti  
“Iqtisodiyot” kafedrası katta o‘qituvchisi  
**E-mail:** [mukhlisakhon.kuchkorova@gmail.com](mailto:mukhlisakhon.kuchkorova@gmail.com)

***Annotatsiya.** Maqolada hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional asoslarini takomillashtirish va bu yo‘nalishdagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Hududiy rivojlanishda mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati institutlari hamda davlat–xususiy sheriklikning roli tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston hududlarida ijtimoiy va institutsional ko‘rsatkichlarning dinamikasi o‘rganilib, mavjud muammolar va ularni hal etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so‘zlar:** hududiy rivojlanish, barqaror rivojlanish, ijtimoiy-institutsional asoslar, davlat siyosati, mahalliy boshqaruv, fuqarolik jamiyati, DXSh.*

***Аннотация.** В статье раскрываются приоритетные направления государственной политики по совершенствованию социально-институциональных основ устойчивого развития регионов. Анализируется роль органов местного самоуправления, институтов гражданского общества и механизмов государственно-частного партнёрства в обеспечении устойчивого территориального развития. Изучена динамика социальных и институциональных показателей регионов Узбекистана, определены основные проблемы и представлены научно обоснованные предложения по их решению.*

***Ключевые слова:** региональное развитие, устойчивое развитие, социально-институциональные основы, государственная политика, местное управление, гражданское общество, ГЧП.*

**Annotation.** *The article examines the priority areas of state policy aimed at improving the social and institutional foundations of sustainable regional development. It analyzes the role of local self-government bodies, civil society institutions, and public-private partnership mechanisms in ensuring balanced territorial development. The dynamics of social and institutional indicators across the regions of Uzbekistan are studied, key challenges are identified, and scientifically grounded policy recommendations are proposed.*

**Keywords:** *regional development, sustainable development, social and institutional foundations, state policy, local governance, civil society, PPP.*

## **Kirish**

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti ko'p jihatdan ularning hududlarini samarali boshqarish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan siyosatning qay darajada shakllanganligiga bog'liqdir. Xususan, ijtimoiy-iqtisodiy resurslarning hududlar bo'yicha nomutanosib taqsimlanganligi, infratuzilma darajasining farqli bo'lishi, aholining turmush sifati va davlat xizmatlariga bo'lgan imkoniyatlarining bir xil emasligi hududiy siyosatni ilmiy asosda olib borish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu nuqtai nazardan, hududlarni barqaror rivojlantirish masalasi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ijtimoiy adolatni ta'minlash, aholining farovonligini yuksaltirish va davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Hududlarni barqaror rivojlantirish – bu hududlarning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik salohiyatini kompleks holda rivojlantirish orqali ularning uzoq muddatli raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonidir. Ushbu jarayonda ijtimoiy–institutsonal omillar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki barqaror rivojlanish nafaqat ishlab chiqarish hajmi yoki iqtisodiy ko'rsatkichlarning oshishiga, balki aholining ijtimoiy faolligi, boshqaruv institutlarining samaradorligi va davlat siyosatining izchilligiga ham bevosita bog'liqdir. Zamonaviy yondashuvlar hududiy rivojlanishni boshqarishda markazlashgan siyosatdan ko'ra, hududlarning ichki salohiyatini safarbar etishga va mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashga urg'u beradi.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda hududlarni kompleks rivojlantirish va barqarorlikni ta'minlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylandi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari, davlat–xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy etish bo'yicha qabul qilingan hujjatlar hududlarni boshqarishning yangi institutsional modelini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonda mahalliy boshqaruv organlarining mustaqilligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, inson kapitaliga sarmoya kiritish va hududlarning iqtisodiy faolligini oshirish asosiy vazifa etib belgilanmoqda.

Shu bilan birga, mavjud amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab hududlarda ijtimoiy va institutsional mexanizmlar hali yetarlicha samarali ishlamayapti. Mahalliy boshqaruv organlarining tashabbus ko'rsatish imkoniyatlari cheklangan,

fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatida tizimlilik yetishmaydi, iqtisodiy resurslar va ijtimoiy xizmatlarning taqsimoti esa ko‘pincha nomutanosibdir. Bu esa hududlararo tafovutlarni yanada chuqurlashtirishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy–institutsional asoslarni takomillashtirish orqali hududiy rivojlanishni ilmiy asosda boshqarish dolzarb vazifalardan biri sifatida kun tartibiga chiqmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional omillari ko‘pincha boshqaruv sifati, institutlar samaradorligi, fuqarolik ishtiroki, mahalliy tashabbuslar va inson kapitali kabi ko‘rsatkichlar orqali tavsiflanadi [Porter, 1990; Kuznets, 1966]. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, kuchli institutsional tizimga ega bo‘lgan davlatlarda hududiy rivojlanish barqarorlik, samaradorlik va inklyuzivlik tamoyillari asosida olib boriladi. Bunday tizimlar hududlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolada hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional asoslarini chuqur tahlil qilish, ularni takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash hamda bu borada olib borilayotgan davlat siyosatining mazmun-mohiyatini ochib berish maqsad qilingan. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, statistik ma‘lumotlar va xalqaro tajribalar tahlili asosida ilmiy xulosalar ishlab chiqiladi hamda hududiy siyosatni yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Hududlarni barqaror rivojlantirish masalasi so‘nggi o‘n yilliklarda nafaqat iqtisodiyotni rejalashtirishda, balki davlat boshqaruvi, siyosiy tizimni takomillashtirish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda ham strategik ahamiyat kasb eta boshladi. Ilmiy adabiyotlarda bu jarayonning ijtimoiy–institutsional asoslari alohida tadqiqot yo‘nalishi sifatida shakllangan bo‘lib, u ko‘plab iqtisodchi, sotsiolog va davlat boshqaruvi mutaxassisleri tomonidan keng yoritilgan.

Xalqaro adabiyotlarda hududiy rivojlanish nazariyasining poydevori M. Porterning “Millatlarning raqobatbardosh ustunligi” asarida qo‘yilgan bo‘lib, unda hududlarning iqtisodiy salohiyati, institutlarning sifati va ijtimoiy infratuzilmaning uyg‘unligi iqtisodiy barqarorlikning asosiy omili sifatida ko‘rsatilgan [Porter, 1990]. S. Kuznetsning iqtisodiy o‘shish nazariyasi esa hududlar bo‘yicha iqtisodiy rivojlanish darajalaridagi tafovutlarni kamaytirish orqali uzoq muddatli barqarorlikka erishish mumkinligini ilmiy asoslab bergan [Kuznets, 1966]. D. Rodrik va hamkorlari esa institutlar sifatining iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini empirik jihatdan isbotlab, kuchli institutlar mavjud bo‘lgan hududlarda o‘shish barqarorroq bo‘lishini ta‘kidlaydi [Rodrik, 2007].

So‘nggi yillarda xalqaro tashkilotlar tomonidan hududiy rivojlanishning institutsional omillarini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar amalga

oshirilmoqda. Masalan, BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) 2022-yilda e'lon qilgan hisobotida barqaror rivojlanish maqsadlariga (SDG) erishishda mahalliy boshqaruv organlari, fuqarolik jamiyati va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlik muhim omil sifatida qayd etilgan [UNDP, 2022]. Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) esa 2021-yilgi hisobotida mahalliy boshqaruvning mustaqilligi, budget jarayonlarining shaffofligi va jamoatchilik ishtiroki darajasi hududiy rivojlanish samaradorligiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatgan [OECD, 2021].

Jahon banki tomonidan 2023-yilda chop etilgan "Local Governance and Regional Growth" nomli tadqiqotda ham hududiy boshqaruvning institutsional salohiyati iqtisodiy o'sishning barqarorligini ta'minlashda asosiy determinantalardan biri sifatida qayd etilgan. Unga ko'ra, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlari kengaygan, qaror qabul qilish jarayonlari ochiq va fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik rivojlangan hududlarda iqtisodiy ko'rsatkichlar sezilarli darajada yuqori bo'lgan [World Bank, 2023].

O'zbekiston olimlari ham bu masalaga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Masalan, R. Rashidov hududiy boshqaruvning institutsional asoslarini takomillashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini o'rgangan holda, mahalliy boshqaruv organlariga mustaqillik berish va fuqarolik jamiyati institutlarini kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi [Rashidov, 2022]. Bu yondashuv O'zbekiston sharoitida hududiy resurslardan samarali foydalanish imkonini kengaytiradi.

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va 2020–2024 yillarda qabul qilingan hududiy rivojlanish dasturlarida ham hududiy siyosatning ijtimoiy–institutsional asoslarini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, mahalliy hokimiyat organlarining vakolatlarini bosqichma-bosqich kengaytirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, ochiqlik va hisobdorlik mexanizmlarini joriy etish kabi chora-tadbirlar ko'zda tutilgan [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2023].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar va amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional asoslarini takomillashtirish – bu nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi omil, balki ijtimoiy adolat, inklyuzivlik va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan kompleks jarayondir. Xalqaro tajriba va milliy islohotlar natijalari bu yo'nalishda tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda.

### **Metodologiya**

Tadqiqot jarayonida hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy–institutsional asoslarini o'rganishga yo'naltirilgan tizimli yondashuv, taqqoslash, statistik tahlil va ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda ilg'or ilmiy adabiyotlar asosida tahliliy ishlar olib borildi.

Metodik asos sifatida M. Porterning raqobatbardoshlik nazariyasi, S. Kuznetsning iqtisodiy o'sish modeli va zamonaviy institutsional rivojlanish konsepsiyalaridan foydalanildi. Amaliy tahlil O'zbekiston hududlari misolida 2020–2024-yillar statistik ko'rsatkichlari asosida olib borildi.

### **Tahlil va natijalar**

Hududlarning barqaror rivojlanishida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilish alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston sharoitida so'nggi yillarda hududiy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, tabiiy va inson resurslaridan samarali foydalanish, shuningdek, “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish borasida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda iqtisodiy siyosatning strategik yo'nalishlari sifatida hududiy infratuzilmani rivojlantirish, investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion faoliyatni kengaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan [Porter, 1990; Kuznets, 1973].

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020–2024-yillar mobaynida mamlakat hududlarida yalpi hududiy mahsulot (YHM) hajmi barqaror o'sish sur'atini saqlab qolgan. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, ushbu davrda YHMning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5,6 % ni tashkil etgan, ayrim iqtisodiy zonalarda bu ko'rsatkich 7–8 % gacha yetgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2024). Eng yuqori o'sish Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyatlarida kuzatilgan bo'lib, bu hududlarda investitsiya oqimlari, sanoat klasterlari va logistika infratuzilmasining jadal rivojlanishi bilan izohlanadi.

**1-jadval**

**O'zbekiston hududlarida YHM o'sish sur'atlari (2020–2024), %<sup>127</sup>**

| <b>Hududlar</b>     | <b>2020</b> | <b>2021</b> | <b>2022</b> | <b>2023</b> | <b>2024</b> | <b>O'rtacha yillik o'sish</b> |
|---------------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------|-------------------------------|
| Toshkent shahri     | 5,2         | 6,1         | 7,3         | 7,9         | 8,0         | 6,9                           |
| Toshkent viloyati   | 4,9         | 5,5         | 6,2         | 6,8         | 7,1         | 6,1                           |
| Navoiy viloyati     | 4,7         | 5,2         | 6,5         | 7,0         | 7,4         | 6,2                           |
| Qoraqalpog'iston R. | 3,8         | 4,2         | 4,6         | 5,1         | 5,5         | 4,6                           |
| Respublika bo'yicha | 4,5         | 5,0         | 5,6         | 5,8         | 6,2         | 5,6                           |

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, hududlarning rivojlanishida infratuzilmaning rivojlanganligi, investitsiya hajmi va resurslardan foydalanish samaradorligi o'zaro uzviy bog'liqdir. Infratuzilmasi rivojlangan hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi yuqori bo'ladi, bu esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi. Aksincha, resurslarga boy, ammo infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan ayrim chekka hududlarda iqtisodiy faollik pastligicha qolmoqda.

<sup>127</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, 2024-yil yakuniy hisobotlari

Shuningdek, tahlillar hududiy rivojlanish jarayonida tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligi bilan inson kapitalining sifati o'rtasida ham muhim bog'liqlik borligini ko'rsatdi. Ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasiga qilingan investitsiyalar uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, yuqori malakali ishchi kuchi mavjud bo'lgan hududlarda innovatsion loyihalar soni va ularning iqtisodiy samaradorligi sezilarli darajada yuqori bo'lgan [World Bank, 2023].

2-jadval

O'zbekiston hududlarida ijtimoiy-institutsional rivojlanish ko'rsatkichlari (2024-yil)<sup>128</sup>

| Hududlar             | Ta'lim indeksi <sup>1</sup> | Sog'liqni saqlash qamrovi (%) <sup>2</sup> | Ishsizlik darajasi (%) <sup>3</sup> | Investitsiya hajmi (mlrd so'm) <sup>4</sup> | Mahalliy boshqaruv samaradorligi indeksi <sup>5</sup> |
|----------------------|-----------------------------|--------------------------------------------|-------------------------------------|---------------------------------------------|-------------------------------------------------------|
| Toshkent shahri      | 0,92                        | 98,5                                       | 4,1                                 | 45 200                                      | 0,88                                                  |
| Toshkent viloyati    | 0,88                        | 96,2                                       | 5,0                                 | 28 700                                      | 0,84                                                  |
| Navoiy viloyati      | 0,85                        | 94,8                                       | 5,3                                 | 25 100                                      | 0,82                                                  |
| Qoraqalpog'iston R.  | 0,78                        | 90,1                                       | 7,2                                 | 12 300                                      | 0,76                                                  |
| Surxondaryo viloyati | 0,74                        | 88,7                                       | 8,4                                 | 9 800                                       | 0,72                                                  |
| Respublika bo'yicha  | 0,83                        | 93,6                                       | 5,8                                 | 24 620                                      | 0,80                                                  |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-institutsional rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari ham yuqoriroq. Bu, o'z navbatida, davlat siyosatida hududiy farqlarni hisobga olgan holda differensial yondashuvni talab etadi. Masalan, Toshkent shahri va viloyatida ta'lim va sog'liqni saqlash infratuzilmasi yuqori darajada shakllangan bo'lsa, janubiy va g'arbiy hududlarda bu ko'rsatkichlar past bo'lib, u yerlarda qo'shimcha ijtimoiy-investitsion chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirishda resurslardan foydalanishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial yondashuv zarur. Xususan, iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan hududlarda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va "yashil" texnologiyalarni keng joriy etish ustuvor bo'lishi kerak. Resurs salohiyati nisbatan past bo'lgan hududlarda esa infratuzilma va inson kapitaliga yo'naltirilgan uzoq muddatli investitsiyalar muhim strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

### Xulosa va takliflar

O'zbekiston hududlarida barqaror rivojlanishni ta'minlashda ijtimoiy va institutsional omillarning roli tobora ortib bormoqda. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, hududlarning iqtisodiy o'sish sur'atlari ko'p jihatdan ta'lim sifati,

<sup>128</sup> <https://stat.uz>, <https://www.mf.uz>



sog'liqni saqlash infratuzilmasi, investitsion muhit, mahalliy boshqaruv samaradorligi va resurslardan oqilona foydalanish darajasiga bog'liqdir. Ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi rivojlangan, boshqaruv jarayonlari ochiq va samarali tashkil etilgan, investitsion muhit faol bo'lgan hududlarda iqtisodiy faollik yuqori, ijtimoiy ko'rsatkichlar esa barqaror o'sib bormoqda. Aksincha, infratuzilma va inson kapitali yetarlicha rivojlanmagan chekka hududlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari pastligicha qolmoqda.

Mavjud vaziyatdan kelib chiqib, hududlarni barqaror rivojlantirish siyosatini takomillashtirishda bir qator muhim jihatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, har bir hududning iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy xususiyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni chuqurlashtirish zarur. Bu orqali hududlar uchun mos strategik dasturlar ishlab chiqish va manzilli rivojlanish chora-tadbirlarini amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Ikkinchidan, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga investitsiyalarni ko'paytirish orqali inson kapitali sifatini oshirish zarur. Uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlashda ta'lim, sog'liqni saqlash va aholini ijtimoiy himoyalash tizimlariga ajratiladigan mablag'larni ko'paytirish hal qiluvchi omil hisoblanadi. Uchinchidan, mahalliy boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, shaffoflik va fuqarolar ishtirokini kuchaytirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish hududiy rivojlanish jarayonini tezlashtiradi.

To'rtinchidan, investitsion muhitni yaxshilash va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali hududlarda iqtisodiy faollikni oshirish mumkin. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, mahalliy tadbirkorlik subyektlari uchun qulay sharoit yaratish hududlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Nihoyat, barqaror rivojlanish siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun hududiy indikatorlar asosida monitoring va baholash tizimini takomillashtirish zarur. Bu davlat siyosatining natijadorligini oshiradi va vaqtida tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, hududlarni barqaror rivojlantirishning ijtimoiy va institutsional asoslarini mustahkamlash mamlakatning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Shu yo'nalishda amalga oshiriladigan tizimli islohotlar nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilaydi, balki hududlar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish, aholining turmush sifatini oshirish va milliy raqobatbardoshlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan manba va adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar bazasi. <https://stat.uz>

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2023). Hududlarni rivojlantirish bo‘yicha yillik iqtisodiy sharhlar. Toshkent. <https://www.mf.uz>
3. Jahon banki (World Bank). (2023). Uzbekistan: Human Capital and Regional Development Indicators. <https://data.worldbank.org/country/uzbekistan>
4. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi (CERR). (2024). Hududlar kesimida investitsion muhit va boshqaruv samaradorligi tahliliy hisobotlari. <https://review.uz>
5. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press.
6. Kuznets, S. (1973). Modern Economic Growth: Findings and Reflections. The American Economic Review, 63(3), 247–258.
7. United Nations Development Programme (UNDP). (2023). Human Development Report 2023/24. New York. <https://hdr.undp.org>
8. OECD. (2022). Regional Development Policy in Uzbekistan. Paris: OECD Publishing. <https://www.oecd.org>
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–4934-son qarori. (2021). Hududlarni kompleks rivojlantirish va investitsion jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent. <https://lex.uz>
10. Xamidov, A. & Rasulova, M. (2023). Hududiy rivojlanishda ijtimoiy omillarning o‘rni: O‘zbekiston tajribasi. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 5(3), 112–120.

## INKLYUZIV IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATI RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBALARI

**Qurbanov Azizbek G‘ulom o‘g‘li**

O‘zbekiston Karlar jamiyati Markaziy Boshqaruvining  
yoshlar ishlari bo‘yicha mutaxassisi

**E-mail:** [Azacious.kurbanov@gmail.com](mailto:Azacious.kurbanov@gmail.com)

**Orcid:** [0009-0003-2375-7161](https://orcid.org/0009-0003-2375-7161)

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada nogironligi bor, xususan ko‘zi ojiz va ko‘rish qobiliyati cheklangan shaxslarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishi, ularning ish bilan bandligini ta‘minlashning ahamiyati hamda bu boradagi Germaniya va Hindiston tajribalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Germaniyaning “Ko‘zi ojizlar va zaif ko‘ruvchilar federal jamiyati” (DBSV) faoliyati, ularning ijtimoiy integratsiyani ta‘minlashdagi roli hamda nogiron fuqarolarga yaratilgan imtiyoz va imkoniyatlar o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** nogironlar, ko‘zi ojizlar, ijtimoiy integratsiya, Germaniya tajribasi, Hindiston tajribasi, ish bilan bandlik, inklyuziya, bandlik siyosati.*

***Abstract.** This article analyzes the employment and social integration of persons with disabilities, particularly the blind and visually impaired, highlighting their role in achieving full*

*Ingliz tili muharriri: Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi*  
*Musahhih: Vaxabova Marfua Mirkamalovna*  
*Sahifalovchi va dizayner: Zoirov Sardor Ziyodin o'g'li*

---

## 2- TOPLAM

### 2- MAXSUS SON /2025

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda, **“Management and Economics Scientific Research Journal”** jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pulli asosda chop etiladi.

El. pochta: [journals@timeedu.uz](mailto:journals@timeedu.uz)

Tel.: +998 95 651 90 00

“Management and Economics Scientific Research Journal” jurnali 19.09.2024-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 404368-son reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami:

C-5669639

PNFL: 308906510

---

**Manzilimiz:** Toshkent shahar Yakkasaroy tumani  
Shota Rustaveli ko'chasi, 114